

**TOSHKENT SHAHAR PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

A.Moxamedjanova

Масалаларини ечиш усуллари
(Uslubuy qo'llanma)

Toshkent - 2014

Mazkur uslubiy qo'llanmada qo'shimcha adabiyotlardan olingan ayrim olimpiada masalalarining tuzilishi va yechilishi haqida namunalar keltirilgan. Bu uslubiy qo'llanma yosh mutaxassislariga va matematikaga qiziquvchi o'quvchilarga yaqin ko'makchi bo'lib xizmat qiladi degan umiddaman.

Mualliflar:

A. Moxamedjanova – TSHPKQTMOI Matematika, informatika va fizika kafedrası o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

R.K.Islomov – TSHPKQTMOI matematika, informatika va fizika kafedrası dotsenti.

S.K. Alimova – Toshkent shahar Shayhontohur tumanidagi 19-maktabning matematika o'qituvchisi.

TSHPKQTMOI Ilmiy Kengashining 2014 yil 17 sentyabr oyidagi 5-sonli bayonnoma qarori bilan chop etishga tavsiya etilgan.

Olimpiadaning kelib chiqish tarixi.

Yunonistonning eng baland tog'lari tizmasi Olimp deb ataladi. Tizmadagi eng baland cho'qqi 2917m gacha boradi. Qadimgi yunon mifologiyasida Olimp Zevs boshchiligidagi (xudolar otasi) xudolarning makoni hisoblangan. Shu erda joylashgan olimpiya shahrida eramizdan avvalgi 776 yildan boshlab har 4 yilda Zevs sharafiga umumyunon tantanalari va musobaqalari o'tkazib turilgan va u olimpiya o'yinlari deb nomlangan. Eramizning 394 yiligacha davom etgan bu an'ana 1896 yildan boshlab har 4 yilda o'tkaziladigan umumjahon sport musobaqalari ham olimpiada o'yinlari deb atala boshlangan.

Matematik turnirlar va musobaqalar ham uzoq tarixga ega: masalan, kubik tenglamalarni yechish uchun Tartalya-Kardano formulasi kashf qilinish tarixi shunday turnirlar bilan bog'liq.

1894 yildan buyon Vengriyada maktab o'quvchilari musobaqalarini muntazam o'tkazib kelindi. 1934 yilda Rossiyada, Leningrad shahrida, shu yili Gruziyaning Tbilisi shahrida bo'lib o'tgan. 1935 yilda Moskva shahrida birinchi Moskva olimpiadasi tashkil etildi. 1959 yilda Ruminiyada o'quvchilarning birinchi xalqaro olimpiadasi bo'ldi. 1961 yildan boshlab har yili o'quvchilar uchun matematika olimpiadasi o'tkazildi.

60-yillardan boshlab har yili respublikamizda, maktab o'quvchilarning umum ta'lim fanlari bo'yicha tuman, shahar, viloyat va respublika olimpiadalarini o'tkazish an'anaga aylandi. Shubhasiz aytish mumkinki, bu olimpidalar yoshlarning ilm-fanga, o'qishga qiziqishlarini, etuk mutahassis bo'lishga intilishlarini orttirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Olimpiadaning asosiy maqsadi birgina g'olibni aniqlash bo'lmay, balki barcha qatnashchilarni original masalalar bilan qiziqtirish, ularni matematik to'garaklar mashg'ulotlariga muntazam ishtirok etishga, ma'ruzalar tinglashga, kitob bilan mustaqil ishlashga jalb qilishdir.

Hamma matematiklar ham olimpiada qatnashchisi yoki g'olibi bo'lgan emas. Muvaffaqiyatsizlikdan so'ng, albatta, keyingi olimpiadaga puxtaroq tayyorgarlik ko'rish kerak. Buning uchun ustoz ko'rsatmalariga amal qilish, mustaqil "Olimpiada masalalari to'plami"dan mashqlar bajarish, matematik to'garaklarga qatnashish kerak.

Olimpiada masalalarini yechish metodikasi.

O'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llashdagi muhim o'rinlardan birini olimpiadalar tashkil qiladi. Olimpiada qaysi bosqichda bo'lmasin, u qatnashchilarni hayajonga soluvchi, ammo u hech kim yutqazmaydigan kurashdir. Bunday kurashlarda mustaqil fikrlashga o'rgangan va masalalar yechish bilan muntazam shug'ullanadigan o'quvchilargina g'alaba qozonishi shubhasiz.

Olimpiadaga tayyorlanish jarayoni oldingi olimpiadalarda berilgan masalalar bilan tanishish, undagi amallarni bajarishni o'z ichiga olishi lozim. Olimpiada masalalarining o'ziga xos tomonlari mavjud. Ular nostandart bo'lib, yechimlari ham original fikrlashni, topag'onlikni talab qiladi.

Harfli ifodalar bilan raqamlar orasidagi bog'lanish.

1. $ABC+MN=FEDP$ (ikki, uch, to'rt xonali sonlar) berilganga ko'ra.
 $F^{M+N}+A^F$ ni hisoblang.

Yechish: uch xonali sonning birinchi raqami 9 bo'lgandagina unga ikki xonali son qo'shilsa 4 xonali son hosil bo'ladi va uning birinchi raqami albatta 1 bo'ladi. Demak $A=9$, $F=1$ ekan. $1^{M+N}+9^1=10$. Ya'ni 1 ni har qanday darajaga ko'tarsak 1. Xisoblashni bajarishda qolgan raqamlar ahamiyatga ega emas.

2. $\overline{abc} + \overline{dec} = \overline{fmc}$ (uch xonali, to'rt xonali sonlar)
 berilganga ko'ra $f^{a+d} + (b+d)^c$ ni hisoblang.

Yechish: Ikkala qo'shiluvchining oxirgi raqamlari bir hil bo'lib, yig'indi oxirida ham o'sha raqam bo'lsa, bu faqat 0 bo'lishi mumkin. Demak $c=0$. Ikkita uch xonali son qo'shilganda hosil bo'ladigan 4 xonali sonning birinchi raqami albatta 1 bo'ladi. Demak $f=1$, $1^{a+d}+(b+d)^c=1+1=2$. Qolgan raqamlar ahamiyatsiz.

3. $abcde-ebcda=69993$ 5 xonali sonlar ayirmasi quyidagi $bcd-dcb+792$ va $bc-cb+72$ shartlarni qanoatlantirsa, $abcde$ kamayuvchi sonni toping.

Yechish: $\overline{a\tilde{n}} - \overline{c\tilde{a}} = 10\tilde{a} + \tilde{n} - 10\tilde{n} - b = 9(\tilde{a} - \tilde{n}) = 72$. demak $b-c=8$; $b=8+c$ bunda ikki xol.

1) $c=0$ bo'lsa $b=8$ bu holda kamayuvchi bir xonali son bo'lib qoladi, bu to'g'ri emas.

2) $c=1$ da $b=9$ bu holda yuqoridagi tenglik $91-19=72$.

Endi birinchi shartga o'tamiz.

$$\overline{bcd} - \overline{dcb} = 910 + d - 100d - 19 = 891 - 99d = 792 \quad 99d = 99; \quad \underline{d=1}.$$

Endi berilganlarni ayirmaga qo'yamiz.

$$10000a + 9110 + e - 10000e - 9110 - a = 69993$$

$$9999(a-e) = 69993; \quad a-e=7 \text{ bunda ham ikki xol:} \quad 1) 9-2=7. \quad a=9, e=2 \text{ va}$$

$$2) 8-1=7, \text{ demak } a=8, e=1 \text{ ekan.}$$

$$1\text{-xolda } 99112 - 29119 = 69993$$

$$2\text{-xolda } 89111 - 19118 = 69993$$

Demak kamayuvchi 99112 yoki 89111 bo'lishi mumkin ekan.

4. AB va $5A$ ikki xonali sonlar. $3 \cdot AB = 5A$ bo'lsa, A^2+B^2 ni toping.

$$\text{Yechish: } 3 \cdot 17 = 51, A=1, B=7 \text{ bundan } A^2+B^2=1+49=50.$$

5. Jadvalni shunday uchta ketma-ket son bilan to'ldiringki, bu sonlarning yig'indisi 15 ga teng bo'lsin.

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

Yechish:

T	o'	r	t	b	e	s	h	o	l	t	i
---	----	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

$x+(x+1)+(x+2)=15$; $3x+3=15$; $x=4$. Demak ketma-ket sonlar 4; 5; 6. Jadvalga ularni xarflarda yozamiz.

Matnli masalalar.

6. Ikki pallali toshsiz tarozida berilgan tangalar ichidan qalbaki tangani 3 ga karrali sonlardan olib bir nechta masala tuzish mumkin. Masalan 81 ta tangadan toshsiz ikki pallali tarozida kami bilan necha marta tortishda qalbaki tangani aniqlash mumkin.

Yechish: Tangalarni teng 3 bo'lakka ajratamiz va tarozi pallalariga ikki bo'lagini qo'yamiz, pallalar baravar tursa qalbaki tanga pastda bo'ladi. Topilgan bo'lakni yana 3ga ajratib, shu ishni davom ettiramiz. Demak, to'rtinchi tortishda qalbaki tanga aniqlanar ekan.

7. Nisbati 5 ga teng, yig'indisi 498 ga karrali bo'lgan ikkita uch xonali sonni toping.

Yechish: Izlanayotgan sonlardan kichigini a , kattasini b desak, u holda $100 < a < b < 1000$ shartni qanoatlantiradi. Shartga ko'ra $a+b=498k$; $b:a=5$; bundan $b=5a$; $a+5a=498k$; $a=83k$. demak a uch xonali son bo'lishi uchun $k \geq 2$ bo'lishi kerak. $b=5 \cdot 83k = 415k$ b uch xonali son bo'lishi uchun $k \leq 2$ bo'lishi kerak. Demak $k=2$ ekan. Bundan $a=83 \cdot 2=166$; $b=415 \cdot 2=830$ ekan.

8. Quyidagi ifodalardan qaysi biri katta. $1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot \dots \cdot 99$ yoki 50^{99} .

Yechish: Chapdagi ifodaning yozilishini o'zgartiraylik. 50 dan boshlab uning ikki tarafdagilarni juftlaymiz. $50 \cdot (49 \cdot 51) \cdot (48 \cdot 52) \cdot \dots \cdot (1 \cdot 99)$ har bir ko'paytuvchi $(50-n)(50+n)$ ni beradi bunda $n=1$ dan 49 gacha sonlar. Demak ko'paytma $50^2 - n^2 < 50^2$ dan kichik son. Bunday ko'paytmalar soni 49 ta. $1 \cdot 2 \cdot \dots \cdot 99 < 50 \cdot (50^2)^{49} = 50^{99}$

9. Izlanayotgan sonning kvadrati 0;2;3;5 raqamlaridan tuzilgan bo'lsa, sonning o'zini va kvadratini toping.

Yechish: Sonning kvadrati xech qachon 2, 3 yoki bitta 0 oxirgi raqami bilan tugamaydi. Shuning uchun oxirgi raqam 5 va undan oldingisi 2 bo'ladi. Sababi

$(10a+5)^2=100a^2+100a+25$. 0 ni oldinga yozish ma'nosiz. Shuning uchun birinchi raqam 3, ikkinchisi 0, demak sonning kvadrati $3025=55^2$ bo'lib izlangan son 55 ekan.

10. Quyidagi 3ta shartdan ikkitasini qanoatlantiruvchi A sonini toping.

1) $A+21$ -biror son kvadrati.

2) A -sonning oxirgi raqami.

3) $A-68$ -biror son kvadrati.

Yechish: 1 va 2 shart to'g'ri kelmaydi, chunki oxirgi ikki, sonning kvadrati 2 bilan tugamaydi. 2 va 3 shart to'g'ri kelmaydi, chunki oxirgi uch, sonning kvadrati 3 bilan tugamaydi. Demak, 1 va 3 shartni olamiz. Faraz qilaylik:

$$\begin{cases} A+21=e^2 & e^2-e^2+2e-1=89 \\ A-68=(e-1)^2 & 2e=90; \quad e=45 \end{cases}$$

$$A=45^2-21=2025-21=2004.$$

11. Ikki guruxda bir xil sondagi o'quvchilar o'qiydi. Shulardan har biri kamida bir tilni o'rganadi: ingliz yoki nemis. Agar birinchi guruxdan 5 o'quvchi va ikkinchi guruxdan 6 o'quvchi ikkala tilni o'rgansa, nemis tilini o'rganuvchilar soni ikkinchi guruxda birinchiga nisbatan 3 marta ko'p, ingliz tilini o'rganuvchilar soni birinchi guruxda ikkinchiga nisbatan 4 marta ko'p bo'ladi. Har bir guruxda mumkin bo'lgan o'quvchilarning minimal soni qanday?

Yechish: i-ingliz tilini o'rganuvchilar, n-nemis tilini o'rganuvchilar, u-guruxdagi o'quvchilar soni desak, masala shartiga ko'ra quyidagi tenglikni xosil qilamiz. $u=3n+i-5$ ikkinchi guruxda, $u=n+4i-6$ birinchi guruxda. Bu ikkala tenglikdan, $3n+i-5=n+4i-6$, $2n=3i-1$ $n=(3i-1)/2$, ikkinchidan $2u=3n+i-5+n+4i-6=4n+5i-11$, n o'rniga i orqali ifodasini qo'ysak, $2u=6i-2+5i-11=11i-13$, $u=(11i-13)/2$ ba $n=(3i-1)/2$ ifodalardan $n \geq 6$, $i \geq 6$, agar $i=6$ desak, n-kasr son bo'ladi. n va i lar natural son bo'lgani uchun, $i=7$ desak, $n=10$ bo'ladi. U xolda $u=(77-13)/2=32$ izlangan guruxdagi o'quvchilar soni.

Yuqorida ko'rilgan masalalarning hammasi o'quvchini mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. Masalalar orasidagi qonuniyatlarni, o'hshashliklarni topishga o'rgatadi. Bu qonuniyatlarni bilgan va unga yondoshgan holda yangi masalalar tuzishi mumkin.

12. Stol ustida bir nechta kitoblar bor. Ularni 2, 3, 4, 5, 6, ta dan taxlasak har doim 1 ta kitob ortib qoladi. Agar 7 ta dan taxlasak kitob ortib qolmaydi. Stol ustida qancha kitob bor?

Yechish: Izlanayotgan kitoblar sonini x desak, 2, 3, 4, 5 va 6 sonlarning umumiy karralisi $60n$ bo'lib, $x=60n+1$; $x=7a$; n, a natural sonlar $60n+1=7a$ tenglikdan $a = \frac{60n+1}{7} = 8n + \frac{4n+1}{7}$. Natural son a uchun $n=5$ da $\frac{4n+1}{7}$ qoldiqsiz bo'linadi. Demak $x=60 \cdot 5+1=301$.

13. Xovuzdan 3 litrli va 5 litrli idish yordamida 4 litr suvni qanday olasiz? Yechish: 1-usul. 3 litr idishda 2 marta suv olib, 5 litrga quyamiz. 5 litrdagi suvni to'kib, 3 litrda qolgan 1 litr suvni 5 litrga quyamiz va yana 3 litrda suv olib 5 litrga quyamiz. 2-usul. 5 litr idishda suv olamiz va 3 litr idishga quyamiz. 3 litr idishdagi suvni to'kib, unga 5 litrda qolgan 2litrni quyamiz. 5 litrda suv olib, 3 litrdagi suvga quysak, 5 litr idishda 4 litr suv qoladi.

14. Bir ishni 10 kishi 18 kunda bajaradi. Shu ishni 15 kishi necha kunda bajaradi?

Yechish: $10/15 = x/18$ ya'ni teskari proportsional. Bundan $x=(8 \cdot 12):6=16$.

15. Hovuzga uchta quvurda suv tushadi. Agar 1 va 2 quvurdan oqsa 12 soatda, 1 va 3 dan oqsa 15 soatda, 2 va 3 dan oqsa 20 soatda to'ladi. Uchalasidan baravar oqsa necha soatda to'ladi?

Yechish: $\frac{1}{x} + \frac{1}{y} = \frac{1}{12}$, $\frac{1}{x} + \frac{1}{z} = \frac{1}{15}$, $\frac{1}{y} + \frac{1}{z} = \frac{1}{20}$ bu uchala tenglikning mos tomonlarini qo'shsak $2(\frac{1}{y} + \frac{1}{y} + \frac{1}{z}) = \frac{1}{5}$ hosil bo'ladi. Bundan $\frac{1}{y} + \frac{1}{y} + \frac{1}{z} = \frac{1}{10}$ demak 10 soatda to'ldiradi.

16. Koptokni ma'lum balandlikdan tashlaganda u erga tushib, avvalgi masofaning $\frac{3}{5}$ qismiga ko'tariladi. Yana erga tushib 27 sm. ga ko'tariladi. Avval qanday balandlikdan tashlangan?

Yechish: Tashlangan masofani x desak, $(\frac{3}{5}x) * \frac{3}{5} = 27$; $\frac{9}{25}x = 27$; $x = 27 * \frac{25}{9} = 75$; j: 75 sm.

17. Idishdagi suvga a miqdorda suv qo'shsak $\frac{1}{4}$ qismi to'ladi, agar a miqdorda suv olsak $\frac{3}{20}$ qismi qoladi. Avval idishning qanday qismi to'la bo'lgan?

Yechish: $\begin{cases} x + a = \frac{1}{4} \\ x - a = \frac{3}{20} \end{cases}$; Tengliklarni qo'shsak $2x = \frac{1}{4} + \frac{3}{20} = \frac{5+3}{20} = \frac{8}{20} = \frac{2}{5}$; $x = \frac{2}{10} = 0,2$.

18. Savatdagi olmalarning avval 0,3 qismi va yana 2 donasi olindi, keyin qolgan olmalarning 0,4 qismi va yana 4 donasi olindi, keyin qolgan olmalarning 0,25 qismi olindi, so'ngra 15 dona olma qoldi. Dastlab savatda qancha olma bo'lgan?

Yechish: Masalani teskarisidan yechamiz. Qolgan 15 olma 0,75 qism bo'lsa, $15:0,75=20$, uchinchi olishda 20 olma bo'lgan. Ikkinchi olishda: $20+4=24$; $1-0,4=0,6$; $24:0,6=40$ ta olma bo'lgan. Birinchi olishda: $40+2=42$; $1-0,3=0,7$; $42:0,7=60$. Demak savatda 60 dona olma bo'lgan. J: 60 dona

19. Uch aka-uka mashina olmoqchi bo'lib magazinga kirishibdi. Ular tanlagan mashina 24 mln. so'm turar ekan. Shunda katta aka ukalariga sizlar pullaringizning yarmini bersalaring men shu mashinani olar edim debdi. O'rtanchisi sizlar pullaringizning $\frac{1}{3}$ ni bersalaring men shu mashinani olar edim debdi. Kichigi sizlar pullaringizning $\frac{1}{4}$ ni bersalaring men shu mashinani olar edim debdi. Har birida qanchadan pul bo'lgan?

Yechish: $\begin{cases} x + \frac{1}{2}(y + z) = 24 \\ y + \frac{1}{3}(x + z) = 24 \\ z + \frac{1}{4}(x + y) = 24 \end{cases}; \begin{cases} 2x + y + z = 48 \\ x + 3y + z = 72 \\ x + y + 4z = 96 \end{cases}$

$$\begin{vmatrix} 2 & 1 & 1 \\ 1 & 3 & 1 \\ 1 & 1 & 4 \end{vmatrix} = 24 + 1 + 1 - 3 - 2 - 4 = 17; \quad \begin{vmatrix} 48 & 1 & 1 \\ 72 & 3 & 1 \\ 96 & 1 & 4 \end{vmatrix} = 576 + 72 + 96 - 288 - 48 - 288 = 120$$

$$x = \frac{120}{17} = 7 \frac{1}{17}; \quad \begin{vmatrix} 2 & 48 & 1 \\ 1 & 72 & 1 \\ 1 & 96 & 4 \end{vmatrix} = 576 + 96 + 48 - 72 - 192 - 192 = 264; \quad y = \frac{264}{17} = 15 \frac{9}{17};$$

$$\begin{vmatrix} 2 & 1 & 48 \\ 1 & 3 & 72 \\ 1 & 1 & 96 \end{vmatrix} = 576 + 72 + 48 - 144 - 144 - 96 = 312; \quad y = \frac{312}{17} = 18 \frac{6}{17}.$$

20. Zavodda uch ishchi detal tayorlashdi. 1-chi va 3-chi ishchi birgalikda 2-chi ishchidan 2 marta ko'p, 2-chi va 3-chi ishchi birgalikda 1-chi ishchidan 3 marta ko'p detal tayorladi. Qaysi biri ko'p tayorlagan?

Yechish: 1-chini x, 2-chini y, 3-chini z desak: $x+z=2y$; $y+z=3x$ bundan, $x=2y-z$; $y+z=3(2y-z)$; $y+z=6y-3z$; $4z=5y$; $z=1,25y$; $x=2y-1,25y=0,75y$. Demak eng ko'p detalni 3-chi ishchi tayorlagan.

21. Otning 14 kunda yeydigan ovqatini toychoq bilan birgalikda 10 kunda yeydi. Shu ovqatni toychoq o'zi yesa necha kunda yeydi?

Yechish: Algebraik usul: $1/14 + 1/x = 1/10$; $(x+14)/(14x) = 1/10$; $5x+70=7x$; $2x=70$; $x=35$ kunda.

Arifmetik usul: $14-10=4$ otning 4 kun yeydiganini toychoq 7 kun yeydi. $14:4 \cdot 10=35$ kun. J: 35 kun

22. Bir ishni usta 12 kunda, shogird esa 30 kunda bajaradi. Shu ishni 3 ta usta va 5 ta shogird necha kunda bajaradi?

Yechish: 3 ta usta ishni $12:3=4$ kunda, 5 ta shogird $30:5=6$ kunda. Birgalikda $1/4 + 1/6 = 1/x$, bundan $3x+2x=12$ $x=12/5=2,4$. J: 2,4 kun.

23. Baliq ovida Azamat va Baxtiyor 70 ta laqqa, cho'rtan va zag'ora baliq tutdi. Azamat tutgan baliqlarning $5/9$ qismi laqqa, Baxtiyorda $7/17$ qismi zag'ora bo'lib, laqqa va zag'ora baliqlar soni teng. Nechta cho'rtan baliq ovlangan? Yechish: Ovlangan baliqlar natural sonda bo'lgani uchun 70 ning $5/9$ yoki $7/17$ qismi natural son bo'lishi kerak. Ya'ni 70 ni 9 va 17 ga karrali bo'lgan ikkita qo'shiluvchiga ajratamiz. $70=36+34$; Azamat tutgan laqqa baliqlar soni $36 \cdot (5/9)=20$ ta, Baxtiyor tutgan zag'ora baliqlar soni $34 \cdot (7/17)=14$. Azamat tutgan zag'ora va cho'rtan $36-20=16$ ta, Baxtiyor tutgan laqqa va cho'rtan $34-14=20$ ta.

	1-xol			2-xol			3-xol			4-xol			5-xol			6-xol		
	L	Ch	Z	L	Ch	Z	L	Ch	Z	L	Ch	Z	L	Ch	Z	L	Ch	Z
A	20	0	16	20	2	14	20	4	12	20	6	10	20	8	8	20	10	6
B	10	10	14	8	12	14	6	14	14	4	16	14	2	18	14	0	20	14

Tutilgan cho'rtan baliqlar: 1) $0+10=10$; 2) $2+12=14$; 3) $4+14=18$; 4) $6+16=22$; 5) $8+18=26$; 6) $10+20=30$. J: 10; 14; 18; 22; 26; 30.

24. Hovuzni to'ldiradigan ikkita quvur bo'lib, 1-quvur 15 soatda, 2-quvur 18 soatda to'ldiradi. Agar ikkala quvur baravar 1soat oqsa, hovuzning qancha qismi to'lmay qoladi?

Yechish: $1/15 + 1/18 = x$, $x=11/90$.
 $1-11/90=79/90$ qismi to'lmaydi.

25. 1 dan 99 gacha bo'lgan natural sonlar yozib chiqilsa, necha xonali son hosil bo'ladi? Bu sonda 2 raqami qancha uchraydi?

Yechish: Bir xonali sonlar 9 ta, ikki xonali sonlar 90 ta $9+2 \cdot 90=189$; 2 raqami 20 ta.

26. Birdan to'qqizgacha bo'lgan raqamlar orasiga belgi va ishoralar qo'yib birni hosil qiling.

Yechish: $123=1$, $(1+2):3=1$; $1234=1$, $1 \cdot 2+3-4=1$; $12345=1$, $((1+2):3+4):5=1$; $123456=1$, $(12:3+4+5):6=1$; $1234567=1$, $((((1+2):3+4):5+6):7=1$; $12345678=1$, $(12:3)-4+56:7:8=1$; $123456789=1$, $((((1+2):3+4):5+6):7+8):9=1$.

27. $a=2 \cdot 2 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 5 \cdot 5 \cdot 7 \cdot 11 \cdot 13$, a ning bo'luvchilari nechta?

Yechish: Bo'luvchilarni topish formulasidan foydalansak
 $n=(1+a_1)(1+a_2)(1+a_3)\dots(1+a_k)$, $a_1, a_2, a_3 \dots a_k$ -tub ko'paytuvchilar darajalari.
 $a=2^3 \cdot 3 \cdot 5^2 \cdot 7 \cdot 11 \cdot 13$ da $n=(1+3)(1+1)(1+2)(1+1)(1+1)(1+1)=4 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 2^3=192$
j:192 ta

28. $a=3/7$, $b=5/13$, $c=9/11$ sonlarni o'sish tartibida yozing.

Yechish: Bir-biriga yaqin bo'lgan sonlarning maxraj va surat orasidagi farqqa qarab solishtirish mumkin. Farq qancha katta bo'lsa, kasr shuncha kichik bo'ladi. $7-3=2$, $13-5=8$, $11-9=2$ demak $b < c < a$ ekan.

29. Duskada 1, 2, 3, 4, ...101 sonlari yozilgan. Bir qadamda ularning ixtiyoriy ikkitasini o'chirib, ular o'rniga shu sonlar ayirmasini yozish mumkin. 100 qadamdan so'ng duskada bitta son qoladi. Uning nol emasligini isbotlang.

Yechish:1) 1 ni qoldiramiz, $3-1=1$, $5-4=1$, ..., $101-100=1$, 51 ta 1 qoladi (50 ta qadam); 2) 1 va 25 ta 0 qoladi (25 ta qadam); 3) 1 va 12 ta 0 qoladi (13 ta qadam); 4) 1 va 6 ta 0 qoladi (6 ta qadam); 5) 1 va 3 ta 0 qoladi (3 ta qadam); 1 va 0 qoladi (2 ta qadam); 6) $1 - 0=1$ qoladi (1 ta qadam). Qadamlar soni $50+25+13+6+3+2+1=100$.

30. 2012 ta butun sonning ko'paytmasi birga teng. Ularning yig'indisi nolga teng emasligini isbotlang.

Yechish: Ko'paytma 1 va -1 sonlaridan iborat bo'lishi mumkin. Bunda manfiy raqamlar soni juft sonda va musbatidan kam bo'lganda masala sharti bajariladi.

31. Savdogar bozorga 10 kg. li va 17 kg. li idishlarda 223 kg. asal olib bordi. Unga qancha idish kerek bo'ldi?

Yechish: 17 ni 9 ga ko'paytirganda oxiri 3 bo'ladi, $17 \cdot 9 = 153$, $223 - 153 = 70$, $70 : 10 = 7$. Demak 10 kg idishdan 7 ta, 17 kg idishdan 9 ta, jami 16 ta idish kerak bo'lgan.

32. Arifmetik progressiyaning hadlari soni juft. Uning juft o'rinda turgan hadlari yig'indisidan toq o'rinda turgan hadlari yig'indisini ayirsak 100 ga teng. Uning oxirgi va birinchi hadlari ayirmasi 199 ga teng. Progressiyaning nechta hadi mavjud?

Yechish: $(a_2 + a_4 + a_6 + \dots + a_{2n}) - (a_1 + a_3 + a_5 + \dots + a_{2n-1}) = (a_2 - a_1) + (a_4 - a_3) + \dots + (a_{2n} - a_{2n-1}) = d \cdot n = 100$; $a_{2n} - a_1 = 199$; $a_{2n} = a_1 + (2n-1)d$; $a_1 + (2n-1)d - a_1 = 199$; $2dn - 2dn + d = 200 - 199$; $d = 1$; $n = 100$. J: $d = 1$; $n = 100$

33. Raqamlari yig'indisiga bo'linadigan ikki xonali sonlar nechta?

Yechish: 10, 12, 18, 20, 21, 30, 36, 40, 42, 45, 48, 50, 54, 60, 63, 70, 72, 80, 81, 90, ya'ni 20 ta. J: 20 ta.

34. 9 ta ketma-ket kelgan sonning yig'indisi 243 ga teng. Oltinchi son nimaga teng?

Yechish: $n + (n+1) + (n+2) + \dots + (n+8) = 243$; $9n + 36 = 243$; $9n = 207$; $n = 23$; $23 + 5 = 28$. J: 28 ga.

35. $2011 \cdot 2012 \cdot 2013 - 2010 \cdot 2012 \cdot 2014$ ifodani hisoblang.

Yechish: $2012 = n$ desak. $(n-1) \cdot n(n+1) - (n-2) \cdot n \cdot (n+2) = n(n^2 - 1 - n^2 + 4) = 3 \cdot n = 3 \cdot 2012 = 6036$. J: 6036.

36. 2 va 94 sonlari orasiga shu sonlar bilan arifmetik progressiya xosil qiluvchi 20 ta son qo'yilgan. Shu progressiya hadlarining o'rta arifmetigini toping.

Yechish: Hadlar soni 22 ta bo'ladi, hadlar yig'indisi $\frac{2+94}{2} \cdot 22 = 1056$;

O'rta arifmetigi $\frac{1056}{22} = 48$.

37. Ushbu $2346 \cdot 4689 - 2344 \cdot 4691$ ifodaning sonqiymatini toping.

Yechish: $n = 2345$, $(n+1)(2n-1) - (n-1)(2n+1) = 2n^2 + n - 1 - 2n^2 + n + 1 = 2n = 2 \cdot 2345 = 4690$.

38. 1;2;3;4;5;6;7;8;9 raqamlaridan ularni takrorlamasdan shunday to'rtta ikki xonali tub son tuzingki, bu sonlar yig'indisi 190 dan kichik va 250 dan katta bo'lmasin.

Yechish: $29 + 83 + 47 + 61 = 220$.

39. n -ikki xonali son bo'lib, $p(n)$ -uning raqamlari ko'paytmasi, $s(n)$ – raqamlari yig'indisi bo'lsin. $n = p(n) + s(n)$ tenglik bajarilganda n ning birlar xonasini toring.

Yechish: Yechish: a deb o'nlar xonasi raqamini, b deb birlar xonasi raqamini belgilasak, $n=10a+b$ ikki xonali son yozilishi bo'ladi. U xolda $s(n)=a+b$; $p(n)=a \cdot b$ bo'ladi. Bundan $a \cdot b + a + b = 10a + b$; $a \cdot b = 9a$; $b = 9a/a = 9$. J: 9

40. Har qanday $1 < n$ toq natural sonning kvadrati 1 dan katta bo'lib, 8 ga bo'linganda 1 qoldiq qolishini isbotlang.

Yechish: $2n-1$ toq son. $(2n-1)^2 = 4n^2 - 4n + 1 = 4n(n-1) + 1$.
 n ga toq qiymatlar bersak, $n-1$ ifoda juft son bo'ladi. Eng kichik juft son 2 bo'lgani uchun $4n(n-1)$ ifoda 8 ga bo'linadi. Demakhar doim 1 qoldiq qolar ekan.

41. Natural n ning birorta ham qiymatida $n^2 + 7n + 4$ ning qiymati 121 ga bo'linmasligini isbotlang.

Yechish: $n^2 + 7n + 4 = (n+9)(n-2) + 22$ bu ifoda 11 ga bo'lingani uchun $(n+9)(n-2)$ ham 11 ra bo'linishi kerak. $(n+9)-(n-2)=11$ bo'lgani uchun $(n+9)(n-2)$ bir vaqtda 11 ga bo'linadi yoki bo'linmaydi. Agar $(n+9)(n-2)$ ifoda 11 ga bo'linsa 121 ga ham bo'linadi. Lekin 22 soni 121 ga bo'linmagani uchun $(n+9)(n-2)+22$ ifoda 121 ga bo'linmaydi.

42. Ikkita butun son kvadratlarining yig'indisi 4 ga bo'linsa 3qoldiq qolishi mumkin emasligini isbotlang.

Yechish: Butun sonni 4 ga bo'lsak 0, 1, 2, 3qoldiqlar qoladi. $n^2 + m^2$ ni qaraymiz.

a) $n=2p$, $m=2q$ bo'lsin, ya'ni juft sonlar. $n^2 + m^2 = 4p^2 + 4q^2 = 4(p^2 + q^2)$ ya'ni 4 ga bo'lsak qoldiq 0.

b) $n=2p-1$, $m=2q-1$ bo'lsin, ya'ni toq sonlar. $n^2 + m^2 = (2p-1)^2 + (2q-1)^2 = 4(p^2 + q^2 - p - q) + 2$ ya'ni 4 ga bo'lsak 2qoldiq qoladi.

g) $n=2p$, $m=2q-1$ biri juft, ikkinchisi toq sonlar. $n^2 + m^2 = 4(p^2 + q^2 - q) + 1$ ya'ni 4 ga bo'lsak 1qoldiq qoladi. Demak $n^2 + m^2$ ni 4 ga bo'lganda 3qoldiq qolmas ekan.

43. 20! sonining nechta bo'luvchisi bor?

Yechish:

$20! = 1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5 \cdot 6 \cdot 7 \cdot 8 \cdot 9 \cdot 10 \cdot 11 \cdot 12 \cdot 13 \cdot 14 \cdot 15 \cdot 16 \cdot 17 \cdot 18 \cdot 19 \cdot 20 =$
 $= 1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 2^2 \cdot 5 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 7 \cdot 2^3 \cdot 3^2 \cdot 2 \cdot 5 \cdot 11 \cdot 2^2 \cdot 3 \cdot 13 \cdot 2 \cdot 7 \cdot 3 \cdot 5 \cdot 2^4 \cdot 17 \cdot 2 \cdot 3^2 \cdot 19 \cdot 2^2 \cdot 5.$
 $n = (1+18)(1+8)(1+4)(1+2)(1+1)^4 = 19 \cdot 9 \cdot 5 \cdot 3 \cdot 16 = 41040$

44. $2^{24} - 1$ ifodaning barcha bo'luvchilarini toping.

Yechish: $2^{24} - 1 = (2^{12} - 1)(2^{12} + 1) =$
 $= (2^6 - 1)(2^6 + 1)(2^4 + 1)(2^8 - 2^4 + 1) = 63 \cdot 65 \cdot 17 \cdot 241 = 3^2 \cdot 7 \cdot 5 \cdot 13 \cdot 17 \cdot 241.$ Bo'luvchilar soni: $n = (1+2)(1+1)^5 = 3 \cdot 32 = 96$ ta j: 96 ta

Juft va toq sonlarga doir masalalar.

Juft va toq sonlarga bog'liq qoidalar.

1. Toq sondagi toq sonlarning yig'igdisi toq son.
2. Juft sondagi toq sonlarning yig'igdisi juft son.
3. Juft sonlarning ixtiyoriy sondagisining yig'igdisi juft son.
4. Bir necha toq sonlarning ko'paytmasi toq son.
5. Ko'paytuvchilardan bittasi juft bo'lsa ko'paytma juftdir.
6. Ikkita ketma-ket kelgan natural son ko'paytmasi juft son.

45. $1 \cdot 2 + 2 \cdot 3 + 3 \cdot 4 + 4 \cdot 5 + 5 \cdot 6 + \dots + n \cdot (n+1) = 20122013$ tenglikni isbotlang.

Yechish:

Ko'paytuvchilardan biri juft bo'lsa ko'paytma juft, juft sonlarning ixtiyoriy sondagi yig'indisi juft son bo'lishi kerak. Demak tenglikni isbotlab bo'lmaydi.

46. Qassobga 20 ta qo'yni 1 haftada har kuni toq sonda so'yib berishni iltimos qildi. Qassob bu ishni bajara oladimi?

Yechish: Bajara olmaydi. Chunki 7 ta toq son yig'indisi juft son bo'lmaydi.

47. $1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5 \cdot 6 \cdot 7 \cdot 8 \cdot 9 \cdot 10 \cdot 11 \cdot 12 \cdot 13 \cdot \dots \cdot 2011 \cdot 2012 = 2013$.

(*) o'rniga (+) va (-) ishoralarni qo'yib tenglikni isbotlang.

Yechish: Juft sondagi juft sonlarning algebraik yig'indisi juft son, juft sondagi toq sonlarning ham algebraik yig'indisi juft son. Demak tenglikni isbotlab bo'lmaydi.

48. $1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5 \cdot 6 \cdot 7 \cdot 8 \cdot 9 \cdot 10 \cdot 11$. Ko'paytma 100 ga karralimi? 99 ga chi?

Yechish: Ko'paytma ikkita 0 bilan tugaydi, demak 100 ga karrali. Ko'paytmada $9 \cdot 11 = 99$, demak 99 gaham karrali.

49. $51 \cdot 52 \cdot 53 \cdot 54 \cdot 55 \cdot 56 \cdot 57$. Ko'paytma 10 ga bo'linadimi? 9 ga chi?

Yechish: $54 \cdot 55$ da 0 xosil bo'ladi, demak 10 ga bo'linadi. 54 soni 9 ga bo'linadi.

50. 3 ta ketma-ket natural sonning ko'paytmasi 6 ga bo'linishini isbotlang?

Yechish: 3 ta ketma-ket son: toq·juft·toq yoki juft·toq·juft bo'lishi mumkin. Ko'paytmahar ikkala xolda ham juft bo'ladi. Ikkinchidan, 3 ta ketma-ket natural son ichida 3 ga karrali son albatta bo'ladi. 3 ga karrali juft son 6 ga bo'linadi.

51. 550 so'm pulni 1, 3, 5 so'mliklar orqali maydalash kerak.

Yechish: Bunda 1, 3, 5 so'mliklarning jami 355 ta bo'lsin. Yechish: Toq sondagi toq sonlarning yig'indisi har doim toq son bo'ladi. Bizda 550 juft son bo'lgani uchun masala echimi mavjud emas.

Natural sonlarni ixtiyoriy natural darajaga ko'targanda natijadagi sonning oxirgi xonasiga bog'liq masala va misollar

Natural sonlarni ixtiyoriy natural darajaga ko'targanda natijadagi sonning oxirgi xonasiga bog'liq masala va misollarni yechishdan avval quyidagi qonuniyatga e'tibor berish kerak:

- a) oxiri 0, 1, 5 va 6 bilan tugaydigan sonlarni ixtiyoriy natural darajaga ko'targanda natijaning oxirgi xonasi shu sonlarning o'zi bilan tugaydi.

$$M: 10^n = \dots 0, 21^n = \dots 1$$

$$35^n = \dots 5, 46^n = \dots 6$$

- b) Oxiri 9 bilan tugaydigan sonlarni darajaga ko'targanda juft daraja bo'lsa 1 bilan tugaydi, toq daraja bo'lsa 9 bilan tugaydi. M: $9^{2n} = \dots 1, 9^{2n+1} = \dots 9$

Oxiri 4 bilan tugaydigan sonlarni darajaga ko'targanda juft daraja bo'lsa 6 bilan tugaydi, toq daraja bo'lsa 4 bilan tugaydi. M: $4^{2n} = \dots 6, 4^{2n+1} = \dots 4$

- c) Oxiri 3, 7, 2, 8 bilan tugaydigan sonlarni darajaga ko'targanda quyidagicha o'zgaradi:

7^{4n}	3^{4n}	$\dots 1$	2^{4n+1}	8^{4n+3}	$\dots 2$
7^{4n+3}	3^{4n+1}	$\dots 3$	2^{4n+2}	8^{4n+2}	$\dots 4$
7^{4n+1}	3^{4n+3}	$\dots 7$	2^{4n}	8^{4n}	$\dots 6$
7^{4n+2}	3^{4n+2}	$\dots 9$	2^{4n+3}	8^{4n+1}	$\dots 8$

52. Yig'indini xisoblang.

$$1+11+111+\dots+111\dots 1 = (1/9)(9+99+999+\dots+999\dots 9) = \\ = (1/9)[(10-1)+(10^2-1)+\dots+(10^{2004}-1)] = (1/9)(10+10^2+\dots+10^{2004}) - \\ - 2004 = (1/9)(10^{2005}-10/9-2004)$$

53. Quyidagi ayirmani ildiz belgisidan qutqaring.

$$\sqrt{111111111111111111 - 22222222}$$

Yechish: Bu erda ikkala sonni xona birliklari yoyilmasi shaklida yozib olamiz. Bu qoidani 5- sinfda o'rganishgan. Ildiz ostidagi ayirmani A deb olaylik.

$$A = 10^{15} + 10^{14} + 10^{13} + \dots + 10 + 1 - 2 \cdot (10^7 + 10^6 + \dots + 10 + 1) =$$

Geometrik progressiya hadlari yig'indisi formulasini qo'llasak.

$$= \frac{10-10^{15} \cdot 10}{1-10} + 1 - 2 \cdot \left(\frac{10-10^7 \cdot 10}{1-10} + 1 \right) = \frac{10^{16}-10}{9} + 1 - 2 \cdot \frac{10^8-10}{9} - 2 = \frac{10^{16}-10+9-2 \cdot 10^8+20-18}{9} = \\ = \frac{10^{16}-2 \cdot 10^8+1}{9} = \frac{(10^8-1^2)}{9}; \sqrt{A} = \frac{10^8-1}{3} = 3\dots 3$$

54. $2008^{2008} - 2006^{2006}$ ifodaning oxirgi raqami necha?

Yechish: Yuqorida keltirgan qoidalaridan foydalansak kamayuvchining oxirgi raqami 6, ayiriluvchining oxirgi raqami 4 bo'lgani uchun ayirmaning oxirgi raqami 2 ga teng.

55. $2006+2005-2001$ ifoda 10ga bo'linadimi?

Yechish: Albatta bo'linadi. Yuqoridagi qonuniyatdan $\dots 6 + \dots 5 - \dots 1 = \dots 0$

Yuqoridagi sonlarni shunday tanlashimiz kerakki, natijaning oxirgi raqami 0 bo'lsa, ifodaning 10 ga yoki 5 ga bo'linishini isbotlashimiz mumkin.

Boshqa sonlarga bo'linishini isbotlash uchun bu misol boshqacharoq tuziladi.

56. $2006^{2006}-1995^{2006}$ ayirmaning 11 ga bo'linishini isbotlang.

Yechish: Bu ifodani ikki qavsga ajratish mumkin.

$$2006^{2006}-1995^{2006}=(2006-1995)(2006^{2005}+\dots+1995^{2005})=11\cdot(2006^{2005}+\dots+1995^{2005})$$

Birinchi qavs 11 ga tengligidan ko'paytma 11ga bo'linadi. Ikkinchi qavsni Nyuton binomi bo'yicha yoyib chiqish mumkin. Lekin bizning isbotimiz uchun uning axamiyati yo'q. Bu holda darajalar teng bo'lishi shart.

57. $7777^{2222}+2222^{7777}$ ifodaning 9 ga bo'linishini isbotlang.

Yechish: Buning uchun ifoda ko'rinishini o'zgartiramiz, ya'ni 1 ni qo'shib 1 ni ayiramiz. $(7777^{2222}-1^{2222})+(2222^{7777}+1^{7777})$

Bu qavslarning har birini ikkitadan qavsga ajratish mumkin.

$(7777-1)(7777^{2222}-\dots)+(2222+1)(2222^{7776}-\dots)$ Ikkinchi qavslarni Nyuton binomi bo'yicha yoyish mumkin, lekin bizga uning axamiyati yo'q.

$7777-1=7776$ soni 9 ga bo'linadi.

$2222+1=2223$ soni ham 9 ga bo'linadi. Demak yig'indi 9 ga bo'linar ekan.

58. 2^{1000} ifodani 7 ga bo'lganda, qanday qoldiq qoladi?

Yechish: $2^3=8$ ni 7 ga bo'lsak 1 qoldiq qoladi. $2^{999}=(2^3)^{333}=(7+1)^{333}$ ifodani 7 ga bo'lsak 1 qoldiq qoladi. $2^{999}=(2^3)^{333}=(7+1)^{333}$ ifodani 7 ga bo'lsak 1 qoldiq qoladi. $2^{1000}=2\cdot 2^{999}=2^{999}+2^{999}$ ifodani 7 ga bo'lganda 2 qoldiq qolar ekan.

59. $2^{99}+2^9$ yig'indining 41 ga bo'linishini isbotlang.

Yechish: Qisqa ko'paytirish formulasidan foydalansak $(2^{99}+2^9)=(2^{33})^3+(2^3)^3=(2^{33}+2^3)(2^{66}-2^{36}+2^6)$ birinchi qavsga yana qisqa ko'paytirish formulasini qo'llaymiz. $2^{33}+2^3=(2^{11})^3+2^3=(2^{11}+2)(2^{22}-2^{12}+2^2)$

Birinchi qavsdan $2^{11}+2=2(2^{10}+1)=2(1024+1)=2050=41\cdot 50$.

60. Ketma-ket raqamlar bilan yozilgan to'rt xonali natural son bilan ularning teskari tartibda yozilishidan xosil bo'lgan to'rt xonali son orasidagi farq nechaga teng?

$$\begin{aligned} & 1000n+100(n+1)+10(n+3)+n+3 \\ \text{Yechish: } & -\frac{1000(n+3)+100(n+2)+10(n+1)+n}{3000+100-10-1}=3087. \end{aligned}$$

Bu qonuniyatni o'qitayotgan sinfimizga qarab 2 xonalidan to 9 xonali sonlargacha olib shu shartni qo'yishimiz mumkin.

61. Ketma-ket raqamlar bilan yozilgan to'rt xonali natural son bilan ularning teskari tartibda yozilishidan xosil bo'lgan to'rt xonali son yig'indisi 11 ga bo'linadimi?

Yechish:

$$\frac{1000n + 100(n+1) + 10(n+2) + n + 3 + 1000(n+3) + 100(n+2) + 10(n+1) + 1}{1001(n+3) + 110(n+2) + 110(n+1) + 1001n} = \frac{91 \cdot 11(n+3) + 10 \cdot 11(n+2) + 10 \cdot 11(n+1) + 91 \cdot 11n}{1001(n+3) + 110(n+2) + 110(n+1) + 1001n}$$

Qo'shiluvchilarning har biri 11 ga bo'lingani uchun, yig'indi 11 ga bo'linadi.

62. Xovuzni to'ldirish uchun ikkita quvur o'rnatilgan. Ulardan birinchisi xovuzni 4,5 soatda, ikkinchisi 6,75 soatda to'ldirishi mumkin. Birinchi quvur ikkala quvur birgalikda ishlab to'ldiradigan vaqtgacha ishlatildi va uni o'chirib qolgan qismini ikkinchi quvur to'ldirdi. Ikkinchi quvur qancha vaqt ishlagandan so'ng xovuz to'ldi?

